# TUMAN HOKIMI TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATI BILAN TANISHDI

Qo‘shtepa tumani hokimi Anvarjon Abdullayev ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishga ko‘maklashish maqsadida tumandagi ta’lim muassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishmoqda.

Xususan, bugun tuman hokimi Anvarjon Abdullayev va tuman IIB boshlig‘i Iqboljon Xamroqulovlar 16-umumta’lim maktabida bo‘lib, muassasada o‘quvchi va o‘qituvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar, dars va kasbga o‘qitish jarayonlari hamda fan to‘garaklari faoliyati bilan tanishdilar.

Shuningdek, 19-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotida bolajonlarga yaratilgan shart-sharoitlar va oziq-ovqat zaxirasida saqlanayotgan mahsulotlar sifati ham o‘rganilib, mas’ul rahbarlarga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook,
2024-04-04 15:27:01